





REPETITI  
O

# Biologiya

## FANIDAN SAVOL-JAVOBLAR TO'PLAMI



Umumta'lim maktabları, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, abiturientlar, olimpiada qatnashchilari, oliy o'quv yurullari talabalari, o'qituvchilar hamda ushbu fanga qiziquvchi kitobxonlar uchun

2018

**REPETITOR**

---

**Sherzod XALILLAYEV**

# **BIOLOGIYA**

## **FANIDAN SAVOL-**

## **JAVOBLAR TO'PLAMI**

Toshkent  
«Yangi kitob»  
2018

UO'K: 57 (076.3)

KBK: 28.0v6

X-21

X-21

**Xalillayev, Sherzod.**

Repetitor. Biologiya fanidan savol-javoblar to'plami [Matn] /  
Sh.Xalillayev. – Toshkent: Yangi kitob, 2018. – 464 b.

ISBN 978-9943-5190-6-0

UO'K: 57 (076.3)

KBK: 28.0v6ya7

*Savollami tuzishda so'nggi yillarda nashr qilingan 5 – 9-sinf o'quvchilari va akademik litsey, kasb-hunar kollejlari talabalariga mo'ljallangan botanika, zoologiya va biologiya darsliklariga tayanilgan.*

*Kitob umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, abituriyentlar hamda mazkur fanga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.*

**Tuzuvchi:**

Sherzod Xalillayev

**Taqrizchilar:**

A.Sh.Hamrayev, biologiya fanlari doktori, professor,

Z.Y.Ahmedova, biologiya fanlari nomzodi,

G.S.Mirzayeva, biologiya fanlari nomzodi,

D.T.Hamrayeva, biologiya fanlari nomzodi

**«Repetitor» loyihasi rahbari:**

Navro'z Bekmurodov

*Mutaxassislar va hurmatli kitobxonlardan mazkur kitob yuzasidan  
fikr-mulohazalarini quyidagi elektron manzilga yuborishlarini so'raymiz:*

[jangkitob@mail.ru](mailto:jangkitob@mail.ru)

**Abdulia Qodiriy nomidagi**

**viloyat AKM**

**INV № 168648-20184**

ISBN 978-9943-5190-6-0

© Sh.Xalillayev «Biologiya fanidan savol-javoblar to'plami», 2018.

! «Yangi kitob» MChJ, 2018.

## BOTANIKA (5 – 6-sinf)

1. Qaysi organoid hujayralar o'sishi natijasida birlashib yiriklasha boradi?

- A) yadro
- B) plastidalar
- C) hujayra membranası
- D) vakuol

2. Qaysi to'qimalar o'simliklarda uchraydi?

- A) qoplovchi, oziqlantiruvchi
- B) hosil qiluvchi
- C) epiteliy, biriktiruvchi
- D) mexanik, qo'shuvchi

3. Ildizmeva hosil qiladigan o'simlikni belgilang.

- A) kartoshka
- B) piyoz
- C) ismaloq
- D) turp

4. Agar mikroskopda okulyar 20x, obyektiv 40x bo'lса, buyum necha marta kattalashtiriladi?

- A) 300
- B) 400
- C) 800
- D) 500

5. Qaysi o'simliklarning mevasida kraxmal ko'p bo'ladi?

- A) kartoshka, bug'doy
- B) bug'doy, makkajo'xori
- C) tariq, javdar
- D) loviya, mosh

6. O'simlikda ildiz tukchalari folyati necha kun davom etadi?

- A) 3 – 4 kun
- B) 8 – 9 kun
- C) 8 – 15 kun
- D) 10 – 20 kun

7. Oziq moddalar zaxirasi urug' endospermida to'plandigan o'simliklar guruhini belgilang.

- A) sholi, ajriq

B) arpa, suli, loviya

C) go'za, makkajo'xori

D) suli, loviya, go'za

8. Ildiz tukchalari nechta hujayradan iborat bo'ladi?

- A) uchta
- B) ikkita
- C) bitta
- D) bir nechta

9. Qaysi o'simliklilar o'q ildiz sistemasiga ega?

- A) g'o'za, makkajo'xori
- B) burchoq, oqquray
- C) tok, bug'doy
- D) g'ozpanja, g'umay

10. Ildiz qismlari qanday tartibda joylashgan?

1) o'tkazuvchi qism; 2) ildiz qinchasi; 3) so'ruvchi qism; 4) o'suvchi qism.

- A) 2, 4, 3, 1
- B) 2, 1, 3, 4
- C) 3, 4, 2, 1
- D) 4, 2, 1, 3

11. Fotosintez jarayoni barg hujayralarining qaysi qismida kechadi?

- A) plastinkalarida
- B) sitoplazmada
- C) xloroplastda
- D) xromoplastda

12. Murtakdagи ildizchadan dastlab hosil bo'ladigan ildiz qanday nomlanadi?

- A) yon ildiz
- B) qo'shimcha ildiz
- C) asosiy ildiz
- D) popuk ildiz

13. Urug'ning unib chiqishi uchun qanday sharoitlar zarur?

1) suv; 2) yorug'lik; 3) havo;  
4) issiqlik; 5) tuproqdag'i mineral modda.

- A) 1, 2, 4      B) 1, 3, 4  
C) 2, 4, 5      D) 1, 3, 5

14. Urug'id'a kraxmal polisaxaridi ko'p bo'ladi gan o'simliklar guruhini belgilang.

1) tariq; 2) javdar; 3) loviya;  
4) mosh; 5) kungaboqar; 6) no'xat; 7) g'o'za; 8) kartoshka;  
9) suli.

- A) 1, 2, 8      B) 1, 3, 5  
C) 1, 2, 7      D) 1, 2, 9

15. Urug'pallasi o'simta bilan yer yuzasiga ko'tarilib chiqmay-digan o'simliklarni belgilang.

1) loviya; 2) tariq; 3) javdar; 4) yong'oq; 5) o'rik; 6) g'umay; 7) olcha; 8) g'o'za.

- A) 1, 4, 5      B) 2, 3, 6  
C) 2, 4, 8      D) 1, 6, 7

16. Urug'id'a oqsil moddasi ko'p bo'lgan o'simliklarni belgi-lang.

1) bug'doy; 2) makkajo'xori; 3) yasmiq; 4) mosh; 5) kungabo-qar; 6) no'xat; 7) g'o'za; 8) qo-voq; 9) sholi.

- A) 1, 2, 9      B) 2, 3, 5  
C) 5, 7, 8      D) 3, 4, 6

17. Urug'pallasi nish bilan yer ustiga ko'tarilib chiqadigan o'simliklarni belgilang.

1) o'rik; 2) bug'doy; 3) arpa; 4) sebarga; 5) g'umay; 6) olcha;  
7) oqso'xta; 8) qo'ng'irbosh.

- A) 2, 4, 8      B) 1, 4, 6  
C) 3, 5, 7      D) 4, 6, 8

18. Suv nima ta'sirida ildizdan poyaga tomon harakatlanadi?

- A) poyanig so'rish kuchi  
B) tuproqda suv bosimining yuqori bo'lishi  
C) poyada suv bosimining kam bo'lishi  
D) ildiz bosimi

19. Yovvoyi butalar berilgan qatorni belgilang.

1) malina; 2) na'matak; 3) jas-min; 4) bodomcha; 5) qoraqat;  
6) do'lana; 7) zirk.

- A) 1, 2, 4      B) 4, 6, 7  
C) 5, 4, 6      D) 1, 6, 7

20. Qaysi o'simliklar urug'i-ning mag'zida yog' miqdori ko'p bo'ladi?

1) o'rik; 2) arpa; 3) bug'doy;  
4) no'xat; 5) bodom; 6) olma; 7)  
yeryong'oq; 8) loviya.

- A) 1, 2, 8      B) 1, 4, 7  
C) 3, 4, 8      D) 1, 5, 7

21. Dastlab o'simlik qayerdag'i oziq moddalar hisobiga rivoj-lanadi?

- A) ildiz  
B) endosperm  
C) poya  
D) barg

22. Bir tupi 1 m<sup>2</sup> chim hosil qiladigan o'simlikni belgilang.

- A) selin  
B) iloq  
C) qo'ng'irbosh  
D) shuvooq

23. O'q ildizli o'simliklar guruhini belgilang.

1) javdar; 2) sachratqi; 3) arpa; 4) qoqio't; 5) pomidor; 6) tariq; 7) qovoq; 8) aloe.

- A) 1, 3, 8      B) 2, 4, 7  
C) 1, 6, 7      D) 8, 7, 6

**24.** Urug'i tarkibida efir moylari bo'ladigan o'simlikni belgilang.

- A) mastak  
B) shaftoli  
C) na'matak  
D) shivit

**25.** O'simlik hujayrasidagi xlo-roplastlar qanday vazifani bajaradi?

- A) organik moddalarni sintezlaydi, yashil rang berib turadi  
B) nafas olishda ishtirok etadi  
C) zararli moddalarni chiqarib yuborishda ishtirok etadi  
D) o'simlik hujayrasining bo'linishida ishtirok etadi

**26.** Popuk ildizli o'simliklarni belgilang.

- A) javdar, tariq  
B) piyoz, karam  
C) kartoshka, lola  
D) ukrop, zira

**27.** Ildiz qinchasi qanday vazifani bajaradi?

- A) yangi ildizlarni hosil qilish  
B) tayanch  
C) himoya      D) o'tkazish

**28.** Ro'vak to'pgulli o'simlikni belgilang.

- A) karam      B) qamish  
C) bug'doyiq    D) arpa

**29.** Qaysi o'simlikning mevasi gulqo'rg'on bargchalari bi-

lan qo'shilib o'sgan yong'oqcha hisoblanadi?

- A) ismaloq      B) saksovul  
C) lavlagi      D) olma

**30.** Chin mevali o'simlikni belgilang.

- A) olcha      B) nok  
C) behi      D) olma

**31.** Mevasi zeb-ziynat buyumlari tayyorlashda foydalaniladigan o'simlikni belgilang.

- A) bodomcha  
B) rayhon  
C) suvqalampir  
D) tasbehmunchoq

**32.** Zaharli o'simliklar berilgan qatorni belgilang.

- A) mastak, isiriq  
B) mingdevona, o'sma  
C) qarg'ako'z, shuvoq  
D) isiriq, irg'ay

**33.** Zaharli o'simliklar guruhi ni belgilang.

- 1) nasha; 2) bo'tako'z; 3) cherkez; 4) sug'uro't; 5) parpi; 6) shashir.

- A) 1, 3, 4      B) 1, 4, 5  
C) 1, 5, 6      D) 2, 4, 6

**34.** Dorivor o'simliklarni belgilang.

- 1) qizilcha; 2) sho'rak; 3) ebalak; 4) oqsinak; 5) quyonjun; 6) limono't.

- A) 1, 2, 5      B) 2, 3, 4  
C) 1, 4, 6      D) 2, 5, 6

**35.** Ko'p yillik o'tlarni belgilang.

- 1) shashir; 2) qoqi; 3) piyoz;  
4) gulsapsar; 5) qamish; 6) kanop; 7) iloq.

- A) 2, 7, 4, 5    B) 6, 4, 1, 3  
C) 1, 7, 5, 2    D) 7, 1, 4, 2

**36.** Qaysi o'simliklarning mevasi bir nechta mevabargandan tashkil topgan?

- 1) g'o'za; 2) nok; 3) lola;  
4) bangidevona; 5) qoraqat; 6)  
ituzum; 7) boychechak; 8) olma.  
A) 7, 4, 3    B) 8, 6, 5  
C) 4, 5, 6    D) 8, 5, 4

**37.** Gullaridagi kosacha barglari qo'shilib o'sgan o'simliklar guruhini belgilang.

- A) g'o'za, tugmachagul  
B) tok, o'rlik  
C) qizg'aldoq, lola  
D) g'o'za, lavlagi

**38.** Ildiz po'stlog'i hujayralari tuzilishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.

- 1) tirik; 2) yumaloq; 3) yupqa qobiqli; 4) o'lilik; 5) qalin; 6) oval-simon; 7) qalin qobiqli.

- A) 1, 2, 3    B) 4, 2, 3  
C) 1, 6, 7    D) 4, 6, 3

**39.** O'simlik hujayrasida qaysi moddalar to'planadi?

- 1) shakar; 2) glyukagon; 3) al-bumin; 4) oqsil; 5) kraxmal; 6) yog'; 7) glikolipid.

- A) 1, 2, 7    B) 1, 3, 6  
C) 1, 5, 4    D) 1, 6, 7

**40.** Barglari barg qini va yaprog'idan tashkil topgan o'simliklar guruhini belgilang.

- A) sholi, bug'doy, burchoq  
B) makkajo'xori, tariq, bangidevona  
C) tariq, g'umay, ajriq

- D) javdar, g'umay, ituzum

**41.** Quyida yer ustki qismi qishda qurib, o'sish kurtaklari tuproq ostida qishlaydigan o'simlikni ko'rsating.

- A) baliqko'z    B) shuvoq  
C) qoraqat    D) gulsapsar

**42.** Ildizning vazifalarini belgilang.

- 1) suv va unda erigan moddalarni shimib oladi; 2) jinsiy ko'payadi; 3) nafas oladi; 4) nafas olmaydi; 5) vegetativ ko'payish a'zosi; 6) oziq moddalar to'planadi; 7) oziq moddalar to'planmaydi.

- A) 1, 2, 3, 7    B) 1, 4, 5, 7  
C) 1, 3, 5, 6    D) 1, 2, 3, 6

**43.** Mag'izning shakli va hajmi hujayraning nimasiga qarab har xil bo'ladi?

- 1) yirik-maydaligiga; 2) kim-yoviy tarkibiga; 3) yoshiga; 4) yashash sharoitiga; 5) sitoplazma harakatiga.

- A) 1, 2, 5    B) 1, 3, 4  
C) 1, 2, 4    D) 1, 4, 5

**44.** Nima yosh va qari hujayralarni bir-biridan ajratish imkonini beradi?

- A) qobig'ining qalinligi, vakuaning holati

- B) hujayra qobig'ining yo'qligi  
C) hujayra qobig'ining qalinligi, yadro

- D) hujayra qobig'ining shakli, vakua

**45.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan «O'sim-

liklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanim» to'g'risidagi qaror qachon tasdiqlandi?

- A) 1993-yil 16-oktyabr
- B) 1993-yil 2-sentyabr
- C) 1997-yil 26-dekabr
- D) 1997-yil 2-dekabr

**46.** Piyoz po'sti hujayralari pomidor hujayralaridan nimasi bilan farq qiladi?

1) shaklining cho'ziqligi; 2) zichroq joylashganligi; 3) plastidalarning rangsizligi; 4) plastidalarning rangliligi; 5) shaklining yumaloqligi; 6) g'ovak joylashganligi.

- A) 1, 2, 3
- B) 3, 4, 5
- C) 4, 5, 6
- D) 2, 4, 5

**47.** ... – protoplastning asosiy tarkibiy qismi.

- A) hujayra qobig'i
- B) sitoplazma
- C) hujayra membranasi
- D) hujayra mag'zi

**48.** Qanday sababga ko'ra o'simliklar va mevalar har xil rangga kiradi?

- A) vakuolalar hajmining hujayrada ortishi tufayli
- B) hujayra mag'zi va vakuolasining yiriklashishi tufayli
- C) vakuola, yadro, sitoplazma harakati tufayli
- D) xromoplast va xloroplastlar tufayli

**49.** O'simliklarning turiga qarab ildizning yuzasi ... rangli po'stloq bilan qoplangan bo'ladi.

- A) oqish, qoramtil, sarg'ish
- B) oqish, qo'ng'ir, qizg'ish
- C) qoramtil, yashil, ko'k-yashil
- D) sarg'ish, jigarrang, ko'k

**50.** Ildiz bosimining kuchi dastlab qayerda hosil bo'ladi?

- A) ildizning o'suvchi qismida
- B) ildiz tukchalari sitoplazmasida

C) tuproq bilan ildiz tukchalari orasida

- D) ildizning o'tkazuvchi qismida

**51.** Asosiy ildizi nobud bo'lgan o'simliklar berilgan javobni belgilang.

- 1) oqquray;
- 2) javdar;
- 3) qo'n-g'irbosh;
- 4) olma;
- 5) tobulg'i;
- 6) ajriq;
- 7) kamxastak.

- A) 1, 2, 3
- B) 2, 3, 4
- C) 3, 4, 5
- D) 2, 3, 6

**52.** Mikroskopning obyekti vi preparatdan qancha baland bo'lishi kerak?

- A) 1 – 2 sm
- B) 3 – 4 sm
- C) 4 – 6 sm
- D) 4 – 6 mm

**53.** To'qima tushunchasini kim nechanchi yilda fanga kiritgan?

- A) Timiryazev 1900-yilda
- B) Gryu 1682-yilda
- C) Navashin 1915-yilda
- D) Navashin 1898-yilda

**54.** Qaysi to'qimaning hujayralari yupqa va elastik bo'ladi?

- A) hosil qiluvchi
- B) asosiy to'qima
- C) mexanik
- D) qoplovchi

**55.** Fotosintez jarayoni o'simlikning qaysi to'qimasida amalga oshadi?

- A) hosil qiluvchi
- B) asosiy
- C) mexanik
- D) o'tkazuvchi

**56.** Qaysi o'simliklarning urug'ida tarkibidagi kraxmal va oqsillar mayda, qattiq donachalar shaklida bo'ladi?

- 1) suli; 2) isiriq; 3) lavlagi; 4) qovun; 5) mosh; 6) loviya; 7) arpa; 8) bug'doy; 9) tarvuz.
- A) 2, 4, 6, 9    B) 2, 3, 4, 8
- C) 1, 6, 7, 8    D) 3, 4, 5, 6

**57.** Qaysi to'qima, asosan, uchki va yon hosil qiluvchi to-qimalarga ajraladi?

- A) ajratuvchi
- B) o'tkazuvchi
- C) hosil qiluvchi
- D) mexanik

**58.** Qo'shimcha ildiz hosil qiladigan ikki pallali o'simliklarni belgilang.

- A) ajriq, makkajo'xori
- B) makkajo'xori, bug'doy
- C) kartoshka, ajriq
- D) kartoshka, qulupnay

**59.** Qo'shimcha ildizi poyanning yerga yaqin qismidan o'sib chiqadigan o'simliklarni belgilang.

- 1) makkajo'xori; 2) liftok; 3) ajriq; 4) salomalaykum; 5) qu'lupnay; 6) kartoshka; 7) zarrang; 8) qandim.
- A) 1, 2, 6, 7
- B) 1, 2, 4, 7
- C) 1, 4, 5, 8
- D) 1, 3, 5, 6

**60.** O'q ildizli o'simliklar berilgan javobni belgilang.

- 1) ajriq; 2) piyoz; 3) kartoshka; 4) oqquray; 5) tamaki; 6) qo'ng'rbosh; 7) shirach; 8) o'sma.

- A) 1, 2, 6, 7
- B) 2, 5, 6, 7
- C) 3, 4, 5, 8
- D) 2, 4, 5, 6

**61.** Elodeya bargidan tayyorlangan preparat nima uchun mikroskopdagи suv tomchisida ham tabiiy sharoitda o'sgandek tirik bo'ladi?

- A) vakuolasi borligi uchun
- B) hujayrasi bir qavatiligi uchun
- C) suvda o'sgani uchun
- D) shirasi ko'pligi uchun

**62.** Hujayra sellyulozasi yoshiba qarab qanday o'zgaradi?

- A) qalinlashadi
- B) yupqalashadi
- C) eskiradi
- D) yemiriladi

**63.** Ildiz tukchasi ... hujayradan iborat.

- A) bitta uzun va ingichka
- B) bir nechta uzun va ingichka
- C) ko'plab uzun va yo'g'on
- D) bitta qisqa va ingichka

**64.** Har qanday o'simlik nasl qoldirishga harakat qiladi, ya'ni

- ...
- A) meva hosil qiladi, transpiratsiya qiladi
  - B) o'sadi va rivojlanadi
  - C) uzun ildiz hosil qiladi
  - D) kurtak va novda hosil qiladi

**65.** G'o'za niholining ildizi bir kecha-kunduzda 2 – 3 sm o'sadi va bu nima hisobiga so-dir bo'ladi?

- A) uchki kurtakning bo'linishi hisobiga
- B) ildizpoyadagi kurtaklar hisobiga
- C) ildizning oziq moddani ko'p olishi hisobiga
- D) ildiz uchidagi hujayralarning bo'linishi hisobiga

**66.** Yarim butalarni belgilang.

- A) izen, sarsazan, teresken
- B) nastarin, shuvoq, izen
- C) do'lana, shuvoq, izen
- D) ismalcq, iloq, izen

**67.** Qaysi o'simliklar urug'i tarkibida efir moylari nisbatan ko'p bo'ladi?

- A) mastak
- B) boqila
- C) shaftoli
- D) shivist

**68.** O'q ildizli o'simliklarni belgilang.

- 1) qovun; 2) makkajo'xori; 3) jag'-jag'; 4) g'o'za; 5) piyoz; 6) g'umay; 7) no'xat.

- A) 1, 3, 4, 7
- B) 1, 2, 3, 6
- C) 2, 5, 6, 7
- D) 5, 6, 7

**69.** O'simlikka rang beruvchi hujayra organoidlarini belgilang.

- A) xloroplastlar, ribosoma
- B) xromoplastlar, mitoxondriya
- C) leykoplastlar, xloroplast
- D) xromoplastlar, xloroplast

**70.** Mevalar ta'mi hujayraning qaysi qismi bilan bog'liq?

- A) sitoplazma
- B) vakuol

C) mitoxondriya

D) yadro

**71.** Qaysi to'qima hujayralari yupqa devorli, xloroplastlarga boy, tirik parenxima hujayralidan iborat?

- A) qoplovchi
- B) g'amlovchi
- C) hosil qiluvchi
- D) asosiy

**72.** Kollenxima bu – ...

A) jamg'aruvchi to'qima hujayralari

B) asosiy to'qima hujayralari

C) mexanik to'qimaning tirik hujayralari

D) mexanik to'qimaning o'lik hujayralari

**73.** Hujayra sitoplazmasida-  
gi hujayra shirasi bilan to'lgan  
bo'shliq ...

- A) plastida
- B) vakuol
- C) gazli vakuol
- D) hazm qilish vakuoli

**74.** Qaysi o'simliklarda o'q ildiz rivojlangan?

- 1) loviya; 2) makkajo'xori;
- 3) suli; 4) beda; 5) yantoq; 6) sholg'om; 7) boychechak.

- A) 1, 2, 4, 5, 6

- B) 2, 4, 5, 6, 7

- C) 1, 4, 5, 6

- D) 1, 4, 6, 7

**75.** Qaysi o'simliklarda popuk ildiz rivojlangan?

- A) bodring, makkajo'xori
- B) pomidor, bodring, suli
- C) arpa, bug'doy, suli

- D) arpa, loviya, suli
- 76.** Ajriq, shirinmiya, qamish, qoraqobiq kabi o'simliklarning hayotiy shaklini belgilang.
- yarim butalar
  - bir yillik o'tlar
  - ikki yillik o'tlar
  - ko'p yillik o'tlar
- 77.** Tuxumakning hayotiy shaklini ko'rsating.
- o't
  - daraxt
  - buta
  - chala buta
- 78.** Qaysi o'simliklarda ildiz bo'lmaydi?
- suv qaroqchisi
  - sershox qirqbo'g'im
  - dala qirqbo'g'imi
  - zuhrosoch qirqqulog'i
- 79.** Yovvoyi yem-xashak o'simliklarni belgilang.
- sebarga, shuvoq
  - ravoch, chakanda
  - zubturum, afsonak
  - xolmon, do'lana
- 80.** Dorivor o'simlikni belgilang.
- shirach
  - suv qalampir
  - sallagul
  - yasmiq
- 81.** Chorva mollari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadigan o'simliklarni belgilang.
- saksovul;
  - javdar;
  - izen;
  - keyreuk;
  - chakanda;
  - do'lana;
  - yantoq.
- 3, 4, 7
  - 2, 3, 4, 5, 6
  - 1, 2, 5, 6
- 82.** Rafleziya o'simligiga xos xususiyatni belgilang.
- eng uzun poyali
  - eng yirik bargli
  - eng yirik gulli
  - eng mayda mevali
- 83.** Oq akatsiya hayotiy shakli jihatdan qanday o'simlik?
- ko'p yillik o't
  - chala buta
  - daraxt
  - buta
- 84.** Shox-shabbasi yoyiq (1), sharsimon (2) va tik (3) bo'lgan o'simliklarni juftlab bering.
- o'rik;
  - qarag'ay;
  - sadaqayrag'och;
  - olma;
  - terak;
  - shaftoli.
- 1-c; 2-b, c; 3-a, d, f
  - 1-a, d, f; 2-c; 3-b, e
  - 1-b, c; 2-c; 3-a, d, f
  - 1-a, f, c; 2-d, f; 3-b, c
- 85.** Cho'llarda keng tarqalgan yem-xashak yarim butalarни belgilang.
- keyreuk, irg'ay
  - teresken, sarsazar
  - irg'ay, singirtak
  - yalpiz, shashir
- 86.** Bo'yi 1 m ga yetadigan bir yillik o'simliklarni belgilang.
- kanakunjut;
  - kanop;
  - makkajo'xori;
  - qo'ytikan;
  - momaqaldirmoq.
- 2, 3, 5
  - 1, 2, 4
  - 1, 4, 5
  - 1, 2, 3
- 87.** Harorati iliq kelgan kuz oyalarida ham gullahsha davom

etadigan yovvoyi o'simliklarni belgilang.

A) kartoshkagul, xrizantema

B) qora ituzum, jag'-jag'

C) zubturum, karnaygul

D) nastarin, atirgul

**88.** Harorati iliq kelgan kuz oyalarida ham gullahsha davom etadigan madaniy o'simliklarni belgilang.

A) kartoshkagul, atirgul

B) qora ituzum, jag'-jag'

C) zubturum, qo'yechak

D) nastarin, atirgul

**89.** Qaysi o'simliklarning barglari ancha barvaqt to'kiladi?

- 1) na'matak; 2) nastarin; 3) zarang; 4) tikan daraxt; 5) shamshod; 6) terak.

A) 4, 5, 6      B) 2, 3, 4

C) 1, 2, 5      D) 3, 4, 6

**90.** Hujayra qobig'idagi yarim o'tkazuvchanlik xususiyati qaysi paytgacha saqlanib turadi?

A) tashqi muhit harorati pasayguncha

B) nobud bo'lguncha

C) mitoz davrining interkinez davrigacha

D) hujayraning shakli o'zgarishigacha

**91.** Poya va ildizning po'stloq va yog'ochlik tolalari, tosh hujayralari qaysi to'qima turiga kiradi?

A) o'tkazuvchi

B) asosiy

C) qoplovchi

D) mehanik

**92.** Kollenxima (1) va sklerenxima (2) hujayralarning farqini ko'rsating.

- a) tirik; b) o'lik; c) moddalarning harakatini ta'minlaydi.

A) 1-a, 2-b      B) 1-a, 2-c

C) 1-b, 2-c      D) 1-b, 2-a

**93.** Suberin nima?

A) barglarda hosil bo'lgan anorganik modda

B) po'kak to'qima hujayralarning qobig'iga shamilgan modda

C) po'stloq to'qima hujayralarning qobig'iga shamilgan modda

D) hosil qiluvchi to'qimaning turi

**94.** Yog'ochlik va floema orasida o'rashgan to'qima qanday nomlanadi?

A) uchki hosil qiluvchi

B) mehanik

C) yon hosil qiluvchi

D) o'tkazuvchi

**95.** Po'kak to'qima hujayralari qaysi modda hisobiga o'zidan suv va gazlarni o'tkazmaydi?

A) glikogen      B) murein

C) selluloza      D) suberin

**96.** Chigit yuzasidagi tuklarga xos belgini ko'rsating.

A) bir hujayradan iborat

B) ko'p hujayradan iborat

C) ko'p yadroli

D) yadrosiz hujayralar

**97.** O'simliklarning eniga o'sishi qaysi hujayra faoliyatiga bog'liq?

A) kambiy      B) ksilema

C) floema      D) epidermis

**98.** Chala butalar keltirilgan javobni belgilang.

- A) shuvoq, izen  
 B) kungaboqar, zig'ir  
 C) qoqi, qulupnay  
 D) sabzi, karam
- 99.** Ko'p yillik o'tlar keltirilgan javobni belgilang.
- A) shuvoq, izen  
 B) arpa, kungaboqar  
 C) qoqi, ajriq  
 D) sabzi, karam
- 100.** Bir yillik o'tlar keltirilgan javobni belgilang.
- A) shuvoq, izen, astragal  
 B) suli, kungaboqar, zig'ir  
 C) qoqi, qulupnay, keyreuk  
 D) sabzi, karam, singirtak
- 101.** Ikki yillik o'tlarni belgilang.
- A) shuvoq, izen  
 B) arpa, kungaboqar  
 C) qulupnay, keyreuk  
 D) karam, sigirquyruq
- 102.** Manzarali butalarni belgilang.
- A) floks, sallagul, budleya  
 B) xrizantema, nizomgul, chin-nigul  
 C) budleya, buldenej, gortenziya  
 D) gladiolus, giatsint, nargis
- 103.** Bir yillik o't o'simliklarni ko'rsating.
- A) shuvoq, izen, teresken  
 B) arpa, kungaboqar, zig'ir  
 C) qoqi, andiz, shashir  
 D) sabzi, piyoq, karam
- 104.** Ikki yillik o't o'simliklarni ko'rsating.
- A) shuvoq, izen, teresken  
 B) arpa, kungaboqar, zig'ir
- C) qoqi, andiz, shashir  
 D) sabzi, piyoq, karam
- 105.** Qoraqobiq qanday o'simlik?
- A) daraxt      B) buta  
 C) yarim buta    D) ko'p yillik o't
- 106.** Pskom piyozining hayotiy shaklini aniqlang.
- A) bir yillik o't  
 B) ko'p yillik o't  
 C) ikki yillik o't  
 D) chala buta
- 107.** Irg'ay va tobulg'i qanday o'simliklar hisoblanadi?
- A) daraxt  
 B) buta  
 C) yarim buta  
 D) ko'p yillik o't
- 108.** Ko'p yillik o'tlar qatorini ko'rsating.
- A) floks, andiz, lola  
 B) izen, keyreuk, teresken  
 C) gulsapsar, shuvoq, zirk  
 D) uchqat, nastarin, irg'ay
- 109.** Buta o'simliklar qatorini ko'rsating.
- A) floks, andiz, lola  
 B) izen, keyreuk, teresken  
 C) gulsapsar, shuvoq, zirk  
 D) uchqat, nastarin, irg'ay
- 110.** Bargi qor tagida qishlab, bahorda yana o'sishda davom etadigan o'simliklarni ko'rsating.
- A) achambiti, qurttana, kuzgi bug'doy  
 B) ituzum, qo'ng'irbosh, qoqi-o't  
 C) nastarin, qoqio't, sachratqi

- D) atirgul, zig'ir, ituzum
- 111.** Uzoq vaqtgacha barglarining yashil rangini saqlaydigan o'simliklarni ko'rsating.
- A) archa, shaftoli, tut
  - B) chinor, terak, tut
  - C) gledichiya, aylant, qarag'ay
  - D) nastarin, atirgul, ligistrum
- 112.** Bitta hujayrasi 3 – 4 sm uzunlikka ega bo'lgan o'simlikni belgilang.
- A) piyoz B) drosera
  - C) g'o'za D) pomidor
- 113.** Qaysi o'simlikning hujayralari cho'ziqligi, zichroq joylashganligi va leykoplastlardan iboratligi bilan farqlanadi?
- A) nitella
  - B) piyoz
  - C) kungaboqar
  - D) elodeya
- 114.** Qaysi belgi qari va yosh hujayralar uchun umumiyo' bo'ladi?
- A) qobig'inining qalnligi
  - B) vakuolaning egallagan joyi
  - C) yadrosining bor-yo'qligi
  - D) hujayra qobig'inining sellyulozadan iboratligi
- 115.** Qaysi organizmlar hujayrasida mag'iz shakllanmagan?
- A) piyoz, yo'sinlar
  - B) ko'k-yashil suvo'tlar, bakteriya
  - C) elodeya, xlorella
  - D) xlamidomonada, ko'k-yashil suvo'tlar
- 116.** Quyidagi o'simliklardan qaysi biri yem-xashak o'simligi emas?
- A) shuvoq      B) şebarga
- C) izen          D) shirach
- 117.** Quyidagi o'simliklardan qaysi biri «Qizil kitob»ga kiritilmagan?
- A) jumagul      B) sallagul
  - C) shirach       D) qoqio't
- 118.** Tog' yonbag'irlarida keng tarqalgan butalarni belgilang.
- 1) zirk; 2) irg'ay; 3) qoraqat; 4) ligustrum; 5) singirtak; 6) nastarin.
- A) 1, 2, 5      B) 1, 2, 4
  - C) 3, 5, 6      D) 2, 3, 5
- 119.** Cho'llarda keng tarqalgan yem-xashak o'simligini belgilang.
- A) shuvoq      B) qo'ziquloq
  - C) shirach       D) andiz
- 120.** O'simlik hujayrasining vakuolasi tarkibida suvning miqdori qancha?
- A) 50 – 65%    B) 98 – 99%
  - C) 70 – 95%    D) 40 – 65%
- 121.** Havo ildizlarining epidermasi ostidagi etli qavatda qaysi to'qima bo'ladi?
- A) asosiy
  - B) mexanik
  - C) o'tkazuvchi
  - D) hosil qiluvchi
- 122.** Qaysi o'simlikka kuchala to'pguli xos?
- A) qurttana
  - B) yong'oqning changchi guli
  - C) yong'oqning urug'chi guli
  - D) shashir
- 123.** Poyasi suv tagida bo'lib, guli suv yuzasida ochiladigan o'simlikni belgilang.

- A) suv qirqqulog'i
- B) safsan
- C) jumagul
- D) nilufar

**124.** Pista o'simligi mevasini belgilang.

- A) yong'oq
- B) dukkak
- C) qo'zoq
- D) ko'sak

**125.** Raffleziya Arnoldi o'simligi qaysi orolda uchraydi?

- A) Kanar
- B) Seyshel
- C) Sumatra
- D) Tabago

**126.** Qaysi o'simliklarning bargi qor tagida qishlab qoladi?

- A) g'o'za, kanop
- B) ituzum, jag'-jag'
- C) achambiti, gulxayri
- D) tugmachagul, yeryong'oq

**127.** Qaysi o'simlikning barglari bir qavat hujayradan tuzilgan?

- A) zarang
- B) suv qaroqchisi
- C) elodeya
- D) lipa

**128.** Yashil barglarda, yosh novdalarda epidermaning ostidagi etli qavatida qanday to-qima joylashadi?

- A) o'tkazuvchi
- B) po'stloq
- C) asosiy
- D) po'kak

**129.** Jamg'aruvchi to'qima, asosan, qanday hujayralardan iborat?

- A) o'lik parenxima
- B) tirik parenxima
- C) qalin qobiqli
- D) sharsimon

**130.** Qaysi ildizning o'zgarishi dan ildizmevalar hosil bo'ladi?

- A) asosiy
- B) yon
- C) qo'shimcha
- D) popuk

**131.** Ko'p yillik o'tlarni belgilang.

- A) beda, pskom piyozi
- B) shashir, kanakunjun
- C) qoraqat, zirk
- D) oq sho'ra, jag'-jag'

**132.** Bir yillik o'tlarni belgilang.

- A) beda, pskom piyozi
- B) shashir, kanakunjun
- C) qoraqat, andiz
- D) oq sho'ra, jag'-jag'

**133.** Poyasi to'rt qirrali o'simlik ...

- A) hilol
- B) burchoq
- C) rayhon
- D) kartoshka

**134.** Yog'ochi qattiq bo'lgan daraxtlarni belgilang.

- A) zarang, eman
- B) tol, yong'oq
- C) terak, yulg'un
- D) yong'oq, terak

**135.** O'q ildizli o'simliklar guruhini belgilang.

- A) g'o'za, yantoq, sholi
- B) karam, suli, g'o'za
- C) tuxumak, zarang
- D) izen, g'o'za, lola

**136.** Hujayrasida zaharli moddalar to'planadigan o'simliklar guruhini belgilang.

- A) elodeya, lola
- B) isiriq, bo'tako'z
- C) liftok, sebarqa
- D) isiriq, mingdevona

**137.** Qo'shimcha ildizi poyanning yerga yaqin qismidan rivoj-

«Yangi kitob» nashriyotida nashrga tayyorlandi.  
100138, Toshkent shahri Uchtepa tumani  
Chilonzor dahasi 13-mavze 45-uy.

**Tel.: (+99891) 132-36-64, (+99890) 992-35-01**  
**e.mail:** yangikitob@mail.ru

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.  
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.